



**MAVZU: INTERNET ZO`RVONLIGI-KIBERBULINGNING OLDINI
OLISH BO`YICHA HUQUQIY JAVOBGARLIKNI KUCHAYTIRISH VA
TASHKILIY-TEXNIK YECHIMLAR**

Sunnatullayev Akbar Alisher o'g'li

Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Zamonaviy inson hayotini internet, ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ammo internet savodxonligining yetishmasligi fuqarolarning turli jinoyatlar xususan, internet zo'ravonligi (kiberbulling) qurboniga aylanishiga sabab bo'layotganligini inkor etib bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: Kiberbulling, raqamli savodxonlik, elektron pochta, inijtimoiy tarmoq,ota-ona kuzatuv.

Аннотация: Современную жизнь человека невозможно представить без интернета и социальных сетей. Однако отсутствие цифровой грамотности становится причиной того, что граждане всё чаще становятся жертвами различных преступлений, в частности, интернет-насилия (кибербуллинга). Невозможно отрицать тот факт, что кибербуллинг представляет серьёзную угрозу для пользователей интернета, особенно среди молодёжи и детей, и требует особого внимания со стороны общества и родителей.

Ключевые слова: кибербуллинг, цифровая грамотность, электронная почта, социальные сети, родительский контроль.

Annotation: It is impossible to imagine modern human life without the internet and social networks. However, the lack of digital literacy has increasingly led to individuals becoming victims of various crimes, particularly internet violence (cyberbullying). It is undeniable that cyberbullying poses a serious threat to internet users, especially among children and teenagers, and requires special attention from society and parents.



Keywords: *cyberbullying, digital literacy, email, social network, parental supervision.*

Hozirgi kunda fuqarolar ayniqsa yoshlar orasida internet zo'ravonligidan jabrlanganlar soni ko'payib bormoqda. Shu bilan birga bunday holatlar insonda kuchli psixologik bosim, ruhiy zo'riqish va hattoki o'z joniga qasd qilish kabi salbiy holatlar vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Mazkur holatlarga quyidagilar sabab bo'lmoqda:

- so'nggi yillarda internet tarmog'idan foydalangan holda o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlarda shilqimlik qilish (ayniqsa ayollarga nisbatan) holatlari keng tarqalmoqda. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlar xususan Hindistonda bunday harakatlar uchun hatto jinoiy javobgarlik belgilangan. Masalan, Hindiston jinoyat kodeksining 507-**moddasida** shaxsni internet orqali qo'rqitish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Bundan tashqari Hindiston Jinoyat kodeksi 354D va 509-moddalarida *internet, elektron pochta yoki boshqa elektron aloqa shakllaridan foydalanib* har qanday so'z, tovush yoki imo-ishora orqali *ayolning* sha'niga tajovuz qilganlik, Ayolning onlayn faolligini elektron pochta, xabar almashish ilovalari kabi turli xil aloqa usullari orqali kuzatib borish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. (<https://blog.ipleaders.in/overview-of-concept-of-cyber-bullying-in-india/>) Biroq, amaldagi qonunchiligimizda bu holatlar uchun javobgarlik nazarda tutilmagan.

- hozirda O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 30 milliondan oshgan. Ammo, fuqarolarda internet savodxonligi, shuningdek internet tarmoqlar va messenjerlardan xavfsiz foydalanish bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalar yetarli emas. Bunga sabab maktab va oliy talim muassalarida o'quvchi va talabalarga bu sohaga oid bilimlar berilmayapti. Jumladan, 2014-yilda BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi a'zo hukumatlarga raqamli savodxonlikni milliy maktab o'quv dasturlariga kiritishni tavsiya qilgan (<https://connectsafely.org/un-bringing-child-rights-into-the-digital-age/>). Ammo, mamlakatimizda raqamli savodxonlik maktab ta'lim dasturiga kiritilmagan. Bu esa fuqarolarni osongina internet zo'ravonligi qurboniga aylanishida asosiy omillardan biri bo'lmoqda.



- tajribalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda internet zo'ravonligidan jabrlanganlar aksariyat hollarda bu haqida kinga yoki qaysi tashkilotga murojaat qilishni bilishmaydi. Bu esa internet zo'ravonligining huquqni muhofaza qiluvchi organlar e'tiboridan chetda qolishiga sabab bo'lmoqda. Rivojlangan xorijiy davlatlarda bu muammoni hal etish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Xususan, axborot texnologiyalari sohasida dunyoda yetakchi davlatlardan biri bo'lgan Hindistonda Kiberbulling muammosini hal qilish uchun turli Ishonch telefonlari o'rnatilgan. Internet zo'ravonligidan aziyat chekkan har qanday yoshdagi fuqaro bu ishonch telefonlariga murojaat qilishi mumkin. Ishonch telefoniga kelib tushgan murojaatlar zudlik bilan tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib quyidagilar taklif etiladi:

Qonunchilikni takomillashtirish:

a) Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, agar bu harakat amalga oshirilishidan xavfsirash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa jinoiy javobgarlik belgilash. (Jinoyat kodeksi 112-moddasi 1-qismiga qo'shimcha sifatida)

b) Internet axborot tarmog'idan foydalanib shahvoniy shilqimlik qilganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash. (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 41-1-moddasiga qo'shimcha sifatida)

Amaliy chora-tadbirlar:

a) internet zo'ravonligiga uchragan shaxslar murojaat qilishlarini uchun ishonch telefoni va prevcybuling.uz saytini jorish etish lozim. Ushbu sayt va ishonch telefoniga kelib tushgan shikoyatlar zudlik bilan tegishli idoralarga yuborilishini shuningdek, aholiga ishonch telefon va saytga qanday hollarda va qay tartibda murojaat qilish tartibi haqida OAV jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va televideniya orqali ma'lum qilish.

b) Internet zo'ravonligi jabrlanuvchilarining aksariyat qismini yoshlar tashkil etishini inobatga olib maktablarda yuqori sinfdan (5-sinfdan) "Tarbiya darsligi" o'quv fani tarkibida Raqamli savodxonlik jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va



messenjerlardan xavfsiz foydalanish, maxfiylik sozlamalari va parollarni himoya qilish, shuningdek internet zo`ravonligidan qanday himoyalaniish bo`yicha asosiy bilimlarni berishni yo`lga qo`yish.

e) Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, aksariyat hollarda internet zo`ravonligiga uchragan bolalar bu haqida ota-onalariga xabar berishdan qo`rqishadi. Bu esa ota-onalarning farzandlariga nisbatan bo`layotgan tahdidlardan bexabar qolishlariga sabab bo`ladi. Bunga barham berish uchun bir qator xorijiy kompaniyalar ota-ona nazorati mobil dasturlarini yaratishgan. ( “[Qustodio](#)”, “Rethink”). Biroq bu ilovalardan o`zbek tilida foydalanib bo`lmaydi. Ota-onalar uchun farzandlarining ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatlarini kuzatish maqsadida maxsus milliy mobil ilova yaratish lozim. Bu ilova ota-onalarning kuzatuvi yordamida farzandlarining internet zo`ravonligidan jabrlanishlarini oldini oladi:

Ushbu ilovada quyidagi imkoniyatlar mavjud bo`ladi:

- ota-onalar har qanday zo`ravonlik harakatlardan xabardor bo'lishlari uchun farzandlarining SMS, qo'ng'iroqlar va elektron pochta xabarlarini kuzatish;
- O'z joniga qasd qilishga undash va boshqa zo`ravonlik haqidagi har qanday xabar kelsa ota-ona ogohlantirishlar yuborish;
- Ota-ona tomonidan farzandining smartfonidagi keraksiz ilovalar va veb-saytlarni bloklash;
- Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklashga qaratilgan vaqt chegaralarini belgilash (masalan, 22:00dan 6:00gacha Instagram yoki Telegram ilovalariga kirishni taqiqlash)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. The United Nations Committee on the Rights of the Child. (2014). *General comment No. 25 on children's rights in relation to the digital environment*. BMT. URL: <https://connectsafely.org/un-bringing-child-rights-into-the-digital-age/>
2. iPleaders Blog. (2020). *Overview of Concept of Cyber Bullying in India*. URL: <https://blog.ipleaders.in/overview-of-concept-of-cyber-bullying-in-india/>
3. Hindiston Jinoyat kodeksi (Indian Penal Code):
 - o Modda 507: Anonim tahdid orqali qo`rqitish.



- Modda 354D: Ayolni onlayn quvib yurish (stalking).
 - Modda 509: Ayolning sha'niga daxl qiluvchi imo-ishora yoki so'zlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. (1994). [O'zR JK].
URL: <https://lex.uz>
5. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. (1995).
[O'zR MJtK].
URL: <https://lex.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2023). *Raqamli xavfsizlik va savodxonlik bo'yicha yo'riqnoma*.
URL: <https://mitc.uz>
7. ConnectSafely. (2022). *Parent's Guide to Cyberbullying*.
URL: <https://connectsafely.org/cyberbullying/>
8. Qustodio. (2024). *Parental Control App Features*.
URL: <https://www.qustodio.com>